

Gostga test savollari. Yigirish texnologiyasi.

1. Tolali mahsulotni cho‘zishning qanday turlari mavjud?
 - a) birinchi, ikkinchi va uchinchi turlari
 - b) faqat bitta turi
 - c) ikki turi
 - d) to‘rtta turi
2. Cho‘zishdan so‘ng mahsulot uzunligi nima hisobiga ortadi?
 - a) tolalarnig siljishi hisobiga
 - b) tolalar tarangligi hisobiga
 - c) tolalarning qo‘shilishi hisobiga
 - d) tolalarni to‘g‘irlanishi hisobiga
3. Bir tekis piltalash nima hisobiga hosil bo‘ladi?
 - a) qo‘shish va avtorostlagichlarni qo‘llash hisobiga
 - b) cho‘zish hisobiga
 - c) qo‘shish hisobiga
 - d) cho‘zish va qo‘shish hisobiga
4. Piltalash piltasi qanday xususiyatlarga ega?
 - a) tolalari tartibli joylashgan
 - b) tolalari tartibsiz joylashgan
 - c) tolalari ilashuvchan
 - d) tolalari paralell emas
5. Cho‘zish asbobida harakati nazorat qilinmaydigan tolalarni kamaytirish maqsadida nimalar qo‘llaniladi?
 - a) Turli moslamalar
 - b) Datchiklar
 - c) Sezgir elementlar
 - d) Tezlantiruvchilar
6. Piltalash o‘timida optimal qo‘shilishlar soni?
 - a) 6, 8
 - b) 2, 3, 4
 - c) 9, 10
 - d) 1, 2, 3
7. Mahsulotni tekislashda qo‘shish va cho‘zishning kamchiligi nima?
 - a) qo‘shimcha notekislik
 - b) ortiqcha harajatlar
 - c) ortiqcha o‘tim
 - d) qo‘shimcha statik zaryadlar
8. Nima uchun bir o‘timli piltalash joriy qilindi?
 - a) avto rostlagichlar joriy qilinganligi uchun
 - b) qo‘shimcha notekislikni kamaytirish uchun
 - c) tolalar sifati oshgani uchun
 - d) cho‘zishga mahsulot yaxshi tayyorlangani uchun
9. Zamonaviy piltalash mashinasi afzalligini qaysi omil belgilaydi?
 - a) kompyuter yordamida boshqarilishi
 - b) katta tezlikda ishlashi
 - c) ishlatishga qulayligi

- d) sifatli piltalash tayyorlashi
10. Zamonaviy avtorostlagichlar qaysi mahsulotni ko'rsatkichlarni nazorat qiladi va o'zgartiradi?
- a) kirayotgan va chiqayotgan mahsulotni ikkalasini ham
 - b) faqat kirayotgan mahsulotni
 - c) faqat chiqayotgan mahsulotni
 - d) cho'zilayotgan mahsulotni
11. Zamonaviy piltalash mashinalarida qanday cho'zish asbobi ishlatiladi?
- a) 4 X 3
 - b) 4 X 5
 - c) 4 X 4
 - d) 5 X 4
12. Cho'zish asbobi ustki valik yuklanishini qanday asbobda o'lchanadi?
- a) indikator yordamida
 - b) shablon yordamida
 - c) dinamometr yordamida
 - d) maxsus moslama yordamida
13. Zamonaviy piltalash mashinalarida nima uchun ustki valik havo yordamida yuklanadi?
- a) sifatli piltalash tayyorlash uchun
 - b) cho'zish asbobini ishlash muddatini oshirish uchun
 - c) elastik qoplamalarni tejash uchun
 - d) tolalarni shikastlantirmaslik uchun
14. Notekislikning zarari nimalardan iborat?
- a) uskuna va mexnat unumdorligi kamayadi, mahsulot sifati va iqtisodiy ko'rsatkichlar yomonlashadi
 - b) unumdorlik kamayadi
 - c) past sifatli mahsulot tayyorlanadi
 - d) mahsulot chiziqiy zichligi o'zgaradi
15. Mahsulot tekislanishi uchun qaysi holat afzal?
- a) oldin qo'shish keyin cho'zish
 - b) oldin cho'zish keyin qo'shish
 - c) ikkalasi ham bir vaqtda
 - d) mahsulotni bo'lib ingichkalashtirish so'ngra qo'shish
16. Zichlagichlarni vazifalari nimalardan iborat?
- a) mahsulotni zichlaydi va cho'zishni to'g'ri ta'minlaydi
 - b) mahsulotni to'g'rilaydi, kalta tolalarni kamaytiradi
 - c) mahsulotni nazorat qiladi
 - d) mahsulotni yo'naltiradi
17. Ishlab chiqarishda piltalash sifatiga qaysi ko'rsatkich bo'yicha baxo beriladi?
- a) notekisligi bo'yicha
 - b) chiziqiy zichligi bo'yicha
 - c) tozaligi bo'yicha
 - d) to'g'rilanganligi bo'yicha
18. Piltalashda nima uchun ikki o'tim ishlatiladi?
- a) tolalar uchlarini to'g'rilash uchun
 - b) tolalarni paralellashtirish uchun
 - c) piltani zichlash uchun
 - d) ip uzilishini kamaytirish uchun

19. Choʻzish jarayonining maqsadi nima?
- a) yigirish mahsulotlarini tekislash va ingichkalash, tolalarni paralellashtirish
 - b) tolalarni uzunligi boʻyicha tekislash, paralellashtirish va toʻgʻrilash
 - c) piltalarni qoʻshish, tekislash, paralellashtirish va toʻgʻrilash
 - d) yigirish mahsulotini notekisligini kamaytirish va toʻgʻrilash
20. Qaysi oʻtimlarda choʻzish amalga oshiriladi?
- a) Tarash va tarashdan keyingi xamma oʻtimlarda
 - b) Tolalarni titish va tozalashda
 - c) Aralashtirish va savashda
 - d) Tarashdan boshqa xamma oʻtimlarda
21. Piltalash mashinasining asosiy ishchi organi qaysi?
- a) choʻzish asbobi
 - b) pilta taxlagich
 - c) taʼminlash stoli
 - d) choʻzish silindrlari
22. Choʻzuvchi silindr va valiklarga nima uchun tola oʻralib ketadi?
- a) namlik oshib ketgani uchun
 - b) tezlik oshib ketgani uchun
 - c) namlik kamayib ketgani uchun
 - d) yuk miqdori kamligi uchun
23. Choʻzish asbobida nima uchun «kraks» sodir boʻladi?
- a) razvodka kichik oʻrnatilgani uchun
 - b) razvodka katta oʻrnatilgani uchun
 - c) kalta tola koʻpligi uchun
 - d) namlik koʻpligi uchun
24. Zichlagichning diametri piltaning qaysi koʻrsatkichiga qarab tanlanadi?
- a) Chiziqiy zichligiga
 - b) Tozaligiga
 - c) Uzunligiga
 - d) Notekisligiga
25. Zamonaviy piltalash mashinasida kerakli chiziqiy zichlik qanday xosil qilinadi?
- a) Koʻrsatkichlarni korrektirovka qilish orqali
 - b) Almashuvchi organlar orqali
 - c) Tezlikni oʻzgartirish orqali
 - d) Taʼminlovchi mahsulotni oʻzgartirish orqali
26. Piltaning chiziqiy zichligi qachon oʻzgartiriladi?
- a) assortiment oʻzgarganda
 - b) har smenada
 - c) har haftada
 - d) har oyda
27. Piltaning chiziqiy zichligi qanday hujjat asosida oʻrnatiladi?
- a) yigirish rejasiga asosan
 - b) ishlab chiqarish rejasiga asosan
 - c) xom ashyoni ishlatish rejasiga asosan
 - d) iqtisodiy rejaga asosan
28. Pilta chiziqiy zichligini oʻlchov birligi qaysi?
- a) Kiloteks

- b) Kilogramm
 - c) Kilometr
 - d) Kilotonna
29. Piltalashni yigirish tizimidan olib tashlash mumkinmi?
- a) Yo‘q
 - b) Mumkin
 - c) Qisman
 - d) Ayrim xolatlarda
30. Pilta birlashtiruvchi mashinasidagi xolstchaning og‘irligi qancha?
- a) 24 -30kg
 - b) 16 -20kg
 - c) 14 -18kg
 - d) 18-22 kg
31. Mahsulotni qayta tarashga tayyorlashning maqsadi nimalardan iborat?
- a) Bir tekis xolstcha tayyorlash, qayta taralgan pilta va ip chiqishini oshirish
 - b) Xolstcha tayyorlash, piltani qo‘shish va cho‘zish
 - c) Xolstcha tayyorlash, tolalarni zichlab o‘rash va tekislash
 - d) Xolstcha tayyorlash tollalarni zichlab o‘rash va to‘g‘rilash
32. Tolali mahsulot nima uchun qayta taraladi?
- a) Kalta tolalar va nuqsonlarni to‘la ajratish uchun
 - b) Tolalarni alohida tarash uchun
 - c) Mahsulotni alohida tolalarga ajratish uchun
 - d) Qayta tarash piltasini tayyorlash uchun
33. Qayta tarash mashinasida tarash qanday amalga oshiriladi?
- a) Dastlab tolalar tutamining old uchlari, so‘ngra orqa uchlari taraladi
 - b) Tolalar tutami uzunligi bo‘yicha taraladi
 - c) Tolalar davriy holatda taraladi
 - d) Tolalar bosqichma bosqich taraladi
34. Tolalar tutamining oldingi uchlari taroqli barabanacha bilan qaysi davrda taraladi?
- a) Birinchi
 - b) Ikkinchi
 - c) Uchinchi
 - d) To‘rtinchi
35. Taralgan tolalar tutamini ajratishga va orqa uchlari tarashga tayyorlash qaysi davrda bajariladi?
- a) Ikkinchi
 - b) Birinchi
 - c) Uchinchi
 - d) To‘rtinchi
36. Tolalar tutamini orqa uchlari tarash, ajratish va portsiyalarni ulash qaysi davrda amalga oshiriladi?
- a) Uchinchi
 - b) Ikkinchi
 - c) Birinchi
 - d) To‘rtinchi
37. Tolalar tutamini oldingi uchlari tarashga tayyorlash qaysi davrda bajariladi?
- a) To‘rtinchi

- b) Uchinchi
 - c) Ikkinchi
 - d) Birinchi
38. Qisqichlarni asosiy vazifasi nimalardan iborat?
- a) Tolalar tutamini oldingi uchlarini ushlab turish uchun
 - b) Tolalar tutamini orqa uchlarini ushlab turish uchun
 - c) Tolalar tutamini ushlab turish uchun
 - d) Tolalar tutamini uzatish uchun
39. Qisqichlar qanday harakatlanadi?
- a) Oldinga sekin, orqaga tez
 - b) Oldinga tez, orqaga sekin
 - c) Oldinga va orqaga bir tekis
 - d) Oldinga ham, orqaga ham tez
40. Ustki taroq qanday vazifani bajaradi?
- a) Tolalar tutamini orqa uchlarini taraydi
 - b) Tolalar tutamini old uchlarini taraydi
 - c) Faqat uzun tolalarni taraydi
 - d) Faqat kalta tolalarni taraydi
41. Qayta tarash mashinasi qanday ishlaydi?
- a) Davriy holatda
 - b) Uzluksiz holatda
 - c) To'xtovsiz holatda
 - d) Tartibli holatda
42. Cho'zish asbobining quvvati nimani bildiradi?
- a) Cho'zish miqdorini
 - b) Maxsulot uzayishini
 - c) Tezliklar farqini
 - d) Cho'zish asbobining mustaxkamligini
43. Birinchi tur cho'zishda mahsulot uzunligi nimalar hisobiga uzayadi?
- a) Tolalarning to'g'rilanishi va qisman deformatsiyalanishi hisobiga
 - b) Tolalarning bir biriga nisbatan siljishi hisobiga
 - c) Tolalarning paralellashishi hisobiga
 - d) Tolalarning uzayishi hisobiga
44. Ikkinchi tur cho'zishda mahsulot uzunligi nimalar hisobiga uzayadi?
- a) Tolalarning bir biriga nisbatan siljishi hisobiga
 - b) Tolalarning deformatsiyalanishi hisobiga
 - c) Tolalarning paralellashishi hisobiga
 - d) Tolalarning uzayishi hisobiga
45. Qanday tolalarga xarakati nazoratdagi tolalar deb aytiladi?
- a) Uzunligi ta'minlovchi va cho'zuvchi juftliklar orasidagi masofaga teng va undan katta bo'lgan tolalarga
 - b) Uzunligi ta'minlovchi va cho'zuvchi juftliklar orasidagi masofaga teng va undan kichik bo'lgan tolalarga
 - c) Yetarli darajada paralell bo'lmagan tolalarga
 - d) Yetarli darajada to'g'rilanmagan tolalarga
46. Qanday tolalarga xarakati nazoratsiz tolalar deb aytiladi?

- a) Uzunligi ta'minlovchi va cho'zuvchi juftliklar orasidagi masofadan kichik bo'lgan tolalarga
 - b) Uzunligi ta'minlovchi va cho'zuvchi juftliklar orasidagi masofadan katta bo'lgan tolalarga
 - c) Yetarli darajada paralell bo'lmagan tolalarga
 - d) Yetarli darajada to'g'rilanmagan tolalarga
47. Qo'shilayotgan mahsulotning chiziqiy zichligi nimaga teng?
- a) Qo'shilayotgan mahsulotlar chiziqiy zichliklari yig'indisiga
 - b) Qo'shilayotgan mahsulotlar chiziqiy zichliklari ko'paytmasiga
 - c) Qo'shilayotgan mahsulotlar chiziqiy zichliklari ayirmasiga
 - d) Qo'shilayotgan mahsulotlar chiziqiy zichliklari kvadratiga
48. Piliklash mashinasida qaysi jarayonlar ishlatiladi?
- a) Cho'zish, pishitish va o'rash
 - b) Cho'zish, pishitish va aralashtirish
 - c) Cho'zish, o'rash va piliklash
 - d) Cho'zish, pishitish va piliklash
49. Pilik qaysi homaki mahsulotdan tayyorlanadi?
- a) Piltadan
 - b) Tolali aralashmadan
 - c) Tolali massadan
 - d) Tolali qatlamdan
50. Piliklash mashinasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- a) Piltani ingichkalashtirish, mahsulotni pishitish va g'altakka o'rash
 - b) Mahsulotni pishitish va g'altakka o'rash
 - c) Mahsulot tolalarini tekislash, paralellashtirish va o'rash
 - d) Mahsulot tolalarini bir tekis taqsimlash va o'rash.
51. Piliklash mashinalari ta'minlash qurilmalarida yo'naltiruvchi-uzatuvchi vallar nima uchun qo'llaniladi?
- a) Piltaning yashirin cho'zilishini oldini olish uchun
 - b) Cho'zish miqdorini oshirish uchun
 - c) Mashina unumdorligini oshirish uchun
 - d) Pilta notekisligini kamaytirish uchun
52. Piliklash mashinasida qanday pishitish mexanizmlari ishlatiladi?
- a) Urchuqli va urchuqsiz
 - b) Halqali va halqasiz
 - c) Qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan
 - d) G'altakli va g'altaksiz
53. Pishitilganlik nimani bildiradi?
- a) Bir metr mahsulotga to'g'ri kelgan buramlar sonini
 - b) O'n metr mahsulotga to'g'ri kelgan buramlar sonini
 - c) Yuz metr mahsulotga to'g'ri kelgan buramlar sonini
 - d) Ming metr mahsulotga to'g'ri kelgan buramlar sonini
54. Qanday pishitilganlik koeffitsientlari ishlatiladi?
- a) Amaliy va kritik
 - b) Nazariy va hisobiy
 - c) O'zgaruvchan va o'zgarmas
 - d) Me'yoriy va me'yorsiz
55. O'rashning uchinchi sharti nimani bildiradi?

- a) G'altakli karetkani o'zgaruvchan qulochda xarakatlanishini
 - b) G'altakli karetkani o'zgarvas qulochda xarakatlanishini
 - c) G'altakli karetkani ilgarillanma -qaytma xarakatlanishini
 - d) G'altakli karetkani o'zgaruvchan tezlikda xarakatlanishini
56. O'rashning to'rtinchi sharti nimani bildiradi?
- a) G'altakli karetkani ilgarillanma-qaytma xarakatlanishini
 - b) G'altakli karetkani o'zgaruvchan qulochda xarakatlanishini
 - c) G'altakli karetkani o'zgarvas qulochda xarakatlanishini
 - d) G'altakli karetkani o'zgaruvchan tezlikda xarakatlanishini
57. Yangi tipdagi piliklash mashinalarida tezlik yo'nalishi va ko'rsatkichi qaysi organ tomonidan o'zgartiriladi?
- a) Servomotor
 - b) Differentsial
 - c) Boshqarish mexanizmi
 - d) Kanoidlar
58. Buram taqsimlagichlarning vazifasi nimalardan iborat?
- a) Buramlarni bir tekisligini ta'minlash
 - b) Uzilishlar sonini kamaytirish
 - c) Pishitish darajasini oshirish
 - d) Notekislikni kamaytirish
59. Ip o'tkazgich qanday vazifani amalga oshiradi?
- a) Ipning urchuq markazi bo'yicha yo'naltirish
 - b) Ipning notekisligini saqlash
 - c) Ip tarangligini to'g'rilash
 - d) Taranglik dispertsiyasini kamaytirish
60. Halqali yigirish mashinasida qanday jarayonlar bajariladi?
- a) Cho'zish, michkaga buram berish va naychaga o'rash
 - b) Cho'zish va buram berish
 - c) Buram berish va o'rash
 - d) Cho'zish va xosil bo'lgan michkani o'rash
61. Yigirish tezligi va unumdorligini oshirishga qanday erishildi?
- a) Pishitish va o'rash jarayonlarini ajratish orqali
 - b) Mahsulotni tsiklik qo'shish orqali
 - c) Mahsulotni diskretlash orqali
 - d) Silindrik o'rashni ishlatish orqali
62. Yugurdakning nomeri qanday aniqlanadi?
- a) 1000 dona yugurdakning gramm ulchamidagi massasi
 - b) 100 dona yugurdakning mg o'lchamidagi massasi
 - c) 100 dona yugurdakning gramm o'lchamidagi massasi
 - d) 500 dona yugurdakning gramm o'lchamidagi massasi
63. Xozirgi paytda qaysi halqalardan foydalanilmoqda?
- a) KRG tipidagi halqalardan
 - b) Plastmassa halqalardan
 - c) 1 bortli halqalardan
 - d) 1,5 bortli halqalardan
64. Pishitish koeffitsientini tanlash yo'llari
- a) Ipning yo'g'onligiga, tolani uzunligiga, yigirish sistemasiga

- b) Cho‘zish asbobining turiga, olinadigan ipning yo‘g‘onligiga va tolani uzunligiga qarab
 - c) Tolani turiga, yigirish sistemasiga va cho‘zish asbobining turlariga qarab
 - d) Tolani yo‘g‘onligiga, pilikni notekisligi va ipni turiga qarab
65. Zichlagichlarni vazifalari
- a) Mahsulotni zichlaydi va cho‘zish jarayonini to‘g‘ri ta‘minlaydi
 - b) Mahsulotni to‘g‘rilaydi kalta tolalarni kamaytiradi
 - c) Mahsulotni nazorat qiladi, cho‘zish jarayonini yaxshilaydi
 - d) Tolalarni uzaytiradi, kalta tolalardan ajratishni yaxshilaydi
66. Pnevмомexanik yigirish usulida qaysi o‘tim bo‘lmaydi?
- a) Piliklash
 - b) Tarash
 - c) Piltalash
 - d) Yigirish
67. Ochiq uchli yigirish usulida tayyorlangan iplarga qanday shartli belgi berilgan?
- a) OE
 - b) CD
 - c) CM
 - d) OT
68. Ta‘minlovchi silindr va diskretlash barabani orasidagi cho‘zish miqdori qancha?
- a) 3000-5000
 - b) 200-500
 - c) 300-400
 - d) 500-2000
69. Siklik qo‘shish qaerda, qanday sodir bo‘ladi?
- a) Siklik qo‘shish diskret tolalar oqimining yigirish kamerasi ichki qiya sirtida vintsimon chiziqlar bo‘ylab
 - b) Tolalarning yigirish roteri sirtida to‘planadi
 - c) Perfovaliklar yordamida vintsimon chiziqlar bo‘ylab
 - d) Silindr ichki sirtida vintsimon chiziqlar bo‘ylab to‘planadi
70. Pnevмомexanik ip uzish kuchining nisbatan kam bo‘lishiga sabab nima?
- a) Ipni tarkibida tolalarning ayqash-uyqash joylashganligi
 - b) Ipni tarkibida tolalarning siyrak joylashganligi
 - c) Ipni tarkibida tolalarning kam zichlikda joylashganligi joylashganligi
 - d) Ipni tarkibida tolalarning etarli tekislanmaganligi
71. Pnevмомexanik yigirish mashinasida o‘rashning qaysi turi ishlatiladi?
- a) Konusli yoki silindrik
 - b) Faqat konusli
 - c) Faqat silindrik
 - d) Krestli silliq
72. Pnevмомexanik yigirish mashinasida ip qaysi organda pishitiladi?
- a) Yigirish kamerasida
 - b) Pishitish moslamasida
 - c) Diskretlash zonasida
 - d) O‘rash zo‘nasida
73. Pnevмомexanik yigirish mashinasida yigirish kamerasidan ip qanday tezlikda chiqziladi?
- a) O‘zgarmas tezlikda
 - b) O‘zgaruvchan tezlikda

- c) Tezlanuvchan tezlikda
 - d) Rostlanuvchan tezlikda
74. Qaysi javobda “Rieter” firmasining pnevmomexanik yigirish mashinasining markalari to‘g‘ri keltirilgan?
- a) RU-14, R-20, R-40, VT 905, VT-923
 - b) Autocoro-S360, Autocoro-480
 - c) Autoconor-350, VT 905, VT-923
 - d) BD-330, BD-340, BD-350, BD-380, BD-416
75. Qaysi javobda “Orlikon-Chex” firmasining pnevmomexanik yigirish mashinasining markalari to‘g‘ri keltirilgan?
- a) BD-330, BD-340, BD-350, BD-380, BD-416
 - b) RU-14, R-20, R-40, VT 905, VT-923
 - c) Autocoro-S360, Autocoro-480
 - d) Autoconor-350, VT 905, VT-923
76. Diskretlovchi barabanacha qanday vazifani bajaradi?
- a) Ta‘minlanayotgan mahsulotni alohida tolalarga ajratish va diskret tolalar oqimini hosil qilish
 - b) Ta‘minlanayotgan mahsulotni alohida tolalarga ajratish va yigirish kamerasida ip yigirish
 - c) Diskret tolalar oqimini hosil qilish va yigirish kamerasiga yo‘naltirish va ip shakllantirish
 - d) Tolalarni titish, tarash va mahsulotni alohida tolalar oqimiga ajratish
77. Qayta tarash mashinasining bir tsikli necha davrdan iborat?
- a) To‘rtta
 - b) Sakkizta
 - c) Beshta
 - d) Ikkita
78. Katta chiziqli zichlikdagi ip yigirishda qanday xom ashyo ishlatiladi?
- a) Tolali chiqindi va past navli tolalar
 - b) O‘rta tolali paxta tolalari
 - c) Uzun tolali paxta tolalari
 - d) Asosan kimyoviy tolalar
79. Ip yigirish korxonasida tola, pilta, pilik va ip xossalari qaerda tekshiriladi?
- a) Laboratoriyada
 - b) Oxorlashda
 - c) Qayta o‘rashda
 - d) To‘quvda
80. Ballon cheklagich qanday vazifani bajaradi?
- a) Ikki urchuqdagi ipni qo‘shilmasligini ta‘minlaydi
 - b) Ipning taranglik ko‘effitsientini oshiradi
 - c) Ipning o‘ralish zichligini oshiradi
 - d) Ballonda ipning qisqarish ko‘effitsientini oshiradi
81. Pnevmmexanik yigiruv mashinasida pishitishni amalga oshiruvchi qurilma nima deb ataladi?
- a) Yigirish kamerasi
 - b) Rogulka
 - c) Urchuq
 - d) Diskretlovchi barabanacha
82. Diskretlovchi barabanacha vazifasi?

- a) Ta'minlanayotgan mahsulotni alohida tolalarga ajratish va diskret tolalar oqimini hosil qilish
 - b) Plastinkali prujina ta'sirida tolalar tutamini silindrga qattiq qisilishini taminlaydi
 - c) Tolalarni siklik qo'shib halqachaga aylantirish, buramlar berib ip shakllantirish
 - d) Xolstdagi tolalarni dag'al tarash, xas-cho'plardan tozalash va bosh barabanga uzatish
83. Yugurdakning vazifasi nimadan iborat?
- a) Ipning pishitilishini va o'ralishini ta'minlaydi
 - b) Tolani uzunligini va paralelligini ta'minlaydi
 - c) Cho'zilgan pilikni ip o'tkazgichga yo'llash
 - d) Pilikni g'altakka o'ralishini ta'minlaydi
84. Bir xil uzunlikda takrorlanadigan notekislik qanday notekislik deb aytiladi?
- a) Davriy
 - b) Lokal
 - c) Ichki notekislik
 - d) Funktsional
85. Qaysi yigirish tizimida pilta qo'shib- birlashtirish mashinasi ishlatiladi?
- a) Qayta tarash tizimida
 - b) Oddiy tarash tizimida
 - c) Melanj yigiruv tizimida
 - d) Apparat yigiruv tizimida
86. Ip yigirishning yangi usullarini keltiring?
- a) Pnevмомexanik, aerodinamik, elektromexanik, gidrodinamik, pnevmatik
 - b) Urchuqli, halqali, gidravlik, elektrostatik, friksion
 - c) Halqali, rotorli, mexanik, qo'l yordamida
 - d) Gidravlik, elektr zaryadli, dinamik, elimlash usuli
87. Pnevмомexanik usulda olingan iping xalqali yigiruv mashinasida olingan ipdan farqi?
- a) Ip toza, pishiqligi oz, uziluvchanligi yuqori, notekisligi kam
 - b) Pishiqligi ko'p, notekislik yuqori, cho'ziluvchanligi oz
 - c) Pishiqligi va tozaligi bir xil, notekisligi ham bir xil
 - d) Cho'ziluvchanlik, notekislik bir xil, pishiqligi kam
88. Paxta tolasining tekislanish darajasi ipda qancha?
- a) 82 – 85%
 - b) 75 – 80%
 - c) 65 – 70%
 - d) 70 -75 %
89. Paxta tolasining tekislanish darajasi pilikda qancha?
- a) 78 - 80%
 - b) 70 – 75%
 - c) 60 – 65%
 - d) 65 – 70%
90. Paxta tolasining tekislanishi darajasi piltalash piltasida qancha?
- a) 70 - 75 %
 - b) 60 - 65%
 - c) 50 - 55%
 - d) 55 - 60%
91. Egri cho'zish chizig'i nima maqsadda xosil qilinadi?
- a) Nazoratsiz xarakatdagi tolalar sonini kamaytirish uchun
 - b) Cho'zish miqdorini oshirish uchun
 - c) Tolalarni tekislash samarasini oshirish uchun

- d) Tolalarni paralellashtirish uchun
92. Iplarning nuqsonlariga nimalar kiradi?
- Xomashyo bilan o'tadigan va texnologik nuqson
 - Yopishgan tola, chigallangan tola
 - Yog'och qoldig'i, titilmagan tola
 - Pishmagan chigit, barg, tuguncha
93. Yigirish mashinasining unumdorligiga qanday omillar ta'sir qiladi?
- Urchuqning tezligi, ipning chiziqli zichligi, pishitish darajasi
 - Ta'minlash tezligi, umumiy cho'zish miqdori
 - Ta'minlanayotgan maxsulotning chiziqli zichligi
 - Tolalarning uzunligi, xususiy cho'zishlar miqdori
94. Pilik mashinasining qaysi ishchi qismlari pilikni pishitishda ishtirok etadi?
- Silindr, urchuq, rogulka
 - Halqa, yugurdak, differentsial, qulf
 - Baraban, differentsial, qulf
 - Urchuq, ballon cheklagich, shlyapka
95. Chiziqli zichligi 10 teks ipni qaysi sistemada yigirilsa sifatli ip olinadi?
- Qayta tarash
 - Melanj
 - Oddiy tarash
 - Apparat
96. Tarashda mahsulot nima hisobiga tekislanadi?
- Davriy qo'shish hisobiga
 - Tarash hisobiga
 - Cho'zish hisobiga
 - Texnologiya hisobiga
97. PAM-150 aeromexanik yigirish mashinasi qanday chiziqliy zichlikdagi iplar ishlab chiqariladi.
- 84-333 teks
 - 10-54 teks
 - 55-80 teks
 - 30-200 teks
98. Iplarni pishitishga tayorlash qanday jixozlarida amalga oshiriladi?
- o'rash va qo'shib o'rash jixozlarida
 - qayta o'rash va pishitish jixozlarida
 - halqali va pnevmomexanik o'rash jixozlarida
 - naychaga o'rash jixozlarida
99. Chuvish tarangligi nimaga bog'liq?
- Ta'minlovchi pakovkaning diametri, formasi va sifatiga
 - Ta'minlovchi pakovkaga qo'shilgan kalava iplarga
 - O'q bo'shlig'ida bo'shatish tarangligiga va taranglovchi moslamaga
 - Ta'minlovchini bo'shatish vaqtida taranglovchi moslamani ishlashiga
100. Paxta tikuv iplari qanday tayyorlanadi?
- ingichka, yaxshi seleksion navli va 1-2 tipli, oliy va birinchi nav tolalardan yigirilgan
 - yo'g'on, yaxshi seleksion navli va 3-4 tipli, oliy va birinchi nav tolalardan yigirilgan
 - o'rta, o'rta seleksion navli va 4-5 tipli, o'rta va yaxshi nav tolalardan yigirilgan
 - yo'g'on, o'rta seleksion navli va 5-7 tipli, oddiy va iflos nav tolalardan yigirilgan